



KORRUPSIYADAN HOLI DAVLAT- OLIY MAQSADIMIZ

Raimberdiyeva Gulnora Husan qizi

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Filologiya va
tillarni o'qitish[arab tili] yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaning kelib chiqish tarixi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy hayotidagi u sabab paydo bo'luvchi kamchiliklar, O'zbekiston va Jahon miqyosida poraxo'rlikka qarshi olib borilayotgan ishlar va ularning samarasini borasida so'z bordi.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, adolatli jamiyat, halollik, korrupsiya ildizlari, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi kurash, jinoiy javogarlik, qonun, mansab, jamiyat hayoti, umumharakat.

Adolat- barcha qoidalar mezoni. Hayotda adolat bor ekan davlat mustahkam, jamiyat faoldir. Buyuk fransuz adibi Lafontenning fikricha: "Umrboqiy narsalargina buyuk; faqat adolatgina umrboqiyidir".[3] Haqiqatan ham, adolat insonning o'zligini, jamiyat tarozisini, hayotdagi maqsadini anglashda katta ko'makdosh hisoblanadi. Ma'lum ma'noda esa, u halol insonning himoyachisidir. Adolatparvar inson qonunbuzarlikdan qochgan kishi emas, balki qonunbuzarlik qilishga imkon bo'la turib, undan o'zini tiygan shaxsdir. Har qanday holatda ham, adolat va halollik tushunchalari o'rtasida chambarchas bog'liqlik mavjud. Zero, halollik har qanday martabani bezaydi. Farg'onan shahrida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 28-iyul kuni hududlarda huquqbazarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. "Biz islohotlarimizning ilk kunlaridanoq inson qadrini ulug'lashni eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etdik. Yangilangan Konstitutsiyamizda ham O'zbekiston huquqiy davlat ekanligini muhrlab qo'ydik. Yagona maqsadimiz – adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali xalqimizni rozi qilish", - dedi davlatimiz rahbari.[2] Inson halollikdan yuz o'girsa, shu qadar behisob yaramas yo'llarga kirib ketadiki, bu kishidan har qanday qabihlikni hech ikkilanmay kutish mumkin. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, kuch adolatda mujassam, adolat esa kuchli bo'lmog'i darkor. Shuningdek, muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda Alloh taolo: "Ey imon keltirganlar! Alloh uchun haqda turing, adolatli guvoh bo'ling. Bir qavmni yomon ko'rishingiz sizni ularga nisbatan adolat qilmaslikka olib bormasin. Adolat qiling. Bu taqvoga oid ishdir. Allohga taqvo qiling. Albatta, Alloh qilayotgan amalingizdan



xabardor zotdir”(Moida surasi 8-oyat). [1] Temuriylar sultanati asoschisi, o‘z aqlidroki, kuch-g‘ayrati,adolati bilan butun dunyoni lol qoldirgan buyuk sohibqiron bobomiz Amir Temurning sevimli uzugi ko‘zida, jumladan, quyidagi so‘zlar bitilgan edi: “Kuch- adolatdadir”.[4] Bu esa bobomizning o‘z hukmronligi davrida halollik chegarasidan bir qadam ham hatlab o‘tmaganligini tasdiqlaydi. Biz esa buyuk tariximiz tufayli shunchaki ko‘krak kerib yurishimiz emas, balki undagi komillik sari eltuvchi jihatlarni hozirgi hayotimizga ham tatbiq etishimiz lozim, toki buyuk o‘tmishimiz buyuk kelajagimiz uchun poydevor bo‘lsin.

Adolatsizlik insonni nihoyatda yomon ruhiy ahvolga solib qo‘yadigan, uning qadr-qimmatini toptovchi illatdir. Korrupsiya esa mazkur illatning eng yo‘g‘on tomirlaridan biri sanaladi. Shu o‘rinda korruksiyaning kelib chiqish tarixi, aynan nima uchun u bunday nom bilan atalganligiga aniqlik kiritsak,nazarimda, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. “Korrupsiya”- lotin tilidan olingan bo‘lib, “corrumpo”- “pora evaziga sotilish”, “aynish” degan ma’nolarni ifodalaydi. Kengroq qilib aytganda esa, korruksiya- mansabdor shaxsning o‘z yoxud o‘zga kishi manfaatlarini ko‘zlagan holda boylik orttirishga urinish, uni qonunga xilof tarzda taqdim etish demakdir. Xususan, lavozimi natijasida unga ishonib topshirilgan vakolatlarni suiiste’mol qilishi, shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yishi korruksiyaga bog‘liq harakatlarga yaqqol misol bo‘la oladi. XVII asrda yashab o‘tgan ingлиз faylasufi Tomas Gobbsning quyidagi fikri yuqoridagi mulohazalarimizni tasdiqlaydi: “Korrupsiya- davrlar osha o‘sib kelayotgan ildiz bo‘lib, u turli orzu-havaslar ortidan birorta ham qonunni mensimaslikdir”.[5] Jamiyatda shunday sohalar mavjudki, ulardagi korruksiya aralashuvi oddiy inson hayotini izdan chiqarib yuborishga qodir. Xususan, meditsina sohasidagi poraxo'rlik tuzatib bo'lmas oqibatlarga olib kelishi mumkin. Faraz qiling-a, Oliy o‘quv muassasasiga korruksiya yo‘li bilan talabalikka qabul qilingan, ta’limni shu zayilda tamomlagan va pora yordamida ishga kirgan “mutaxassis” bemorlarni qay usulda davolashi mumkin?! Taqir taqozosi bilan bu kabilarning qo‘liga tushib qolgan begunoh insonlar tajriba quyoniga yoki bo‘lmasa, “baxtsiz hodisa” qurbaniga aylanishlari turgan gap.

Inson tanasidagi biror jarohat belgilangan vaqtida davolanmasa, u gazak olib, egasini hatto o‘lim ostonasigacha olib borishi mumkin. Xuddi shu singari, ma’lum jinoyatning oldi o‘z vaqtida olinmasa, butun boshli davlat parokanda bo‘lishi tayin. Korrupsiya ildizlarining uzoq o‘tmishga borib taqalishi barchani birdek mulohazaga chorlaydi. Qadimda jamoaning boshqa vakillariga nisbatan ma’lum usntunlikni qo‘lga kiritish maqsadida qabila oqsoqoli yoxud boshqa bir mansabdor kishiga sovg‘a-salomlar berish odatiy hol sifatida qaralgan. Keyinchalik davlat



boshqaruvching markazlashuvi va murakkablashuvi korrupsiyaning bu kabi ilk ko‘rinishlari jamiyat rivoji, yurt taraqqiyotiga ulkan to‘sinq ekanligini oydinlashtirdi. Unga qarshi kurash maqsadida turli chora-tadbirlar, qonun-qoidalar ishlab chiqila boshlandi. Bolalar bog‘chasidan to Oliy ta’limgacha, oddiy qorovuldan to hokimiyat vakiligacha, ayblanuvchidan to qozigacha bu illat qurbaniga aylangan salmoqligina. Buning sababi insonlarning o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lida ayrim noplak, tamagir shaxslar tomonidan “belgilab qo‘yilgan” g‘ovlar sababli o‘z ishlarining tugallanmay qolishidan qo‘rquv hissidir. Biroq korrupsiyaning jamiyat hayotiga mustahkam o‘rnashib olish sababi faqatgina mansabdor shaxslar emas, balki ularni tez-tez “rag‘batlantirib” turuvchilar hamdir. Shu zayilda ko‘pchilik “beraveradi”, kamchilik “olaveradi”.

Yuz jafo qilsa manga, bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram.[6]

Buyuk mutafakkir bobokalonimiz Alisher Navoiy yuqoridagi misralarini umri bo‘yi o‘ziga shior deb bilgan, yaqin do‘sti Husayn Boyqaro saroyida vazir sifatida faoliyat yuritgan chog‘larda ham xalq manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo‘ygan. Korrupsiyaga qarshi kurash jahon miqyosidagi umumharakat sanaladi. Kasalni davolagandan ko‘ra uning oldini olgan afzal. Shu kabi, korrupsiyaning ham o‘ziga emas, uni keltirib chiqaruvchi sabablarga qarshi kurashish yetarlicha samara berishiga shubha yo‘q. Mashhur yunon tarixchisi Gerodotning xabar berishicha, qadimda forslar tomonidan asos solingen Ahamoniylar davlatida shoh Kir II ning o‘g‘li Kambiz II davrida korrupsiya kechirib bo‘lmas jinoyat sifatida ko‘rilgan. Poraxo‘rlikni amalga oshirgan mansabdor terisi tiriklayin shilib olingan va uning amal kursisiga tashlab qo‘yilgan. Toki, poraxo‘rdan keyingi lavozim egasi bundan tegishli xulosa chiqarsin va vakolatlarini suiiste‘mol qilgan kishi qismati doimo ko‘z oldida bo‘lsin.[7] XVI asrda Rossiyada hukmronlik qilgan shoh Ivan Grozniy esa mamlakatni korrupsionerlardan tozalash maqsadida qatl jazosini qo‘llagan. Hozirgi kunda ham poraxo‘rlikka qarshi olib borilayotgan harakatlar qirg‘in tus olgan. Xususan, Yaponiyada korrrupsiyaga nisbatan murosasizlik ruhi yosh avlodga maktab chog‘laridanoq elementar tarzda singdirib boriladi. Jumladan, maktab qonun-qoidalariga zid ravishda, ko‘chirmachilik “jinoyati” ustida qo‘lga tushgan o‘quvchiga nisbatan keskin choralar qo‘llaniladi. Shuningdek, bu holga guvoh bo‘la turib o‘qituvchini darhol xabardor qilmagan o‘quvchi ham jazoga tortiladi.

Vatanimizda ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi islohotlar keng miqyosda olib borilmoqda. 2022-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan butunrespublika videoselektronida muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni



alohida ta'kidladi: “«Ko‘rib turganiningizdek, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini hayotga joriy etish uchun oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ularni amalga oshirish albatta oson bo‘lmaydi. Lekin biz o‘tgan besh yil mobaynida bu borada katta tajriba to‘pladik, o‘z ish uslubimizni shakllantirdik. Endi talab yanada qattiq bo‘ladi. Bu faqat prezidentning talabi emas, bizga ishonch bildirgan xalqimizning talabi, hayot talabi.

Shuning uchun ham bir g‘ayratimizga o‘n g‘ayrat qo‘sib, haqiqiy fidoyilik namunasini ko‘rsatib ishlashimiz kerak. Har bir so‘zimiz, har bir xatti-harakatimiz jamiyatga, odamlar qalbiga qanday ta’sir ko‘rsatishiga har qachongidan ham ko‘proq e’tibor berishimiz zarur. Davlat tuzumini ichidan yemiradigan, ijtimoiy barqarorlik kushandasini bo‘lgan korrupsiya balosiga qarshi, byurokratiyaning har qanday ko‘rinishlariga, odamlarni mensimaslik, mahalliychilik va guruhbozlik illatlariga qarshi barchamiz keskin kurash olib borishimiz kerak”.[8]

Qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik Palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun o‘z navbatida poraxo‘rlikni jamiyatning barcha sohalaridan yo‘q qilishga sari tashlangan qadamlardan biri bo‘ldi. Mazkur qonunning 25-moddasida quyidagilar alohida ta’kidlab o‘tilgan: “ Korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga chek qo‘yishga, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minalashga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlarining korrupsiyaning holatini va tendensiylarini tizimli tahlil qilishga asoslangan samarali ishini tashkil etish, ularning faoliyatida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklarga qarshi kurashning zamonaviy shakllari va usullaridan foydalanish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnik ta’motni darajasini oshirish, ularning ishiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;

sudlarning mustaqilligi va erkinligini, ular faoliyatining ochiqligini ta’minalash;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari o‘rtasida muvofiqlashtirishni va hamkorlikni ta’minalash;

jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbazarliklar faktlariga doir murojaatlari to‘liq, xolisona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta’minalash;

korrupsiyaga oid huquqbazarliklar to‘g‘risida axborot bergen shaxslarning himoya qilinishini ta’minalash;



korrupsiyaga qarshi kurashning samarali jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual mexanizmlarini yaratish”.[9]

Shuningdek, O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun alohida organ tashkil etildi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi korrupsiyaga oid, birinchi navbatda, O‘zbekistonning milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi. Qolaversa, 2023-yilda yangilangan Konstitutsiyamizning 115-moddasida ham korrupsiyaga oid huquqbazarlik holatlariga qarshi chora-tadbirlar ko‘rish Vazirlar Mahkamasi zimmasida ekanligi alohida eslatib o‘tilgan: “...ijro etuvchi hokimiyat organlarining ishida ochiqlik va shaffoflikni, qonuniylik va samaradorlikni ta’minlash, ularning faoliyatida korrupsiya holatlariga qarshi kurashish, davlat xizmatlarining sifatini oshirish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish bo‘yicha choralar ko‘radi”.[10]

Shu bilan birga, BMT ning 9-dekabr sanasini “Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” deya e’lon qilishi bu illat ildiziga urilgan yana bir qattiq zarba bo’ldi desak, hech mubolag‘a bo‘lmash.

Xalqimizning tom ma’noda adolatli muhitda hayot kechirishi uchun barchamiz birdek javobgarmiz. Bu esa insonlarda korrupsiya, umuman olganda, har qanday qonunbazarlikka nisbatan murosasizlik kayfiyatining qaror topishiga ham bevosita bog‘liq. Zero, aksariyat hollarda jinoyatlar o‘zimizning loqaydligimiz natijasida ro‘y beradi. Barchamiz yakdillikka amal qilgan holda, yurtimiz ravnaqiga daxldorlik hissini o‘zimizga singdira olsak, albatta, har qanday illatni jamiyatdan qo‘porib tashlay olish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoyev. 2022-yil 26-yanvardagi videoselektor yig‘ilishi nutqi/
<https://kun.uz/uz/news>
2. Sh. Mirziyoyev. 2023-yil 28-iyuldagagi videselektor yig‘ilishi
nutqi/<https://www.iiv.uz>
3. Qur’oni Karim Moida surasi 8-oyat/ <https://islom.uz/maqola/1530>
4. Temur tuzuklari. -Toshkent: G’afur G’ulom, 1991.
5. Vorontsov V. Tafakkur gulshani. -Toshkent: G’afur G’ulom, 1989.
6. Vorontsov V. Tafakkur gulshani. -Toshkent: G’afur G’ulom, 1989.
7. Usmonov Q, Sodiqov M, Buurxonova S. O‘zbekiston tarixi. -Toshkent: Iqtisod-moliya, 2006.
8. La Fontaine. Masallar. -Toshkent: G’afur G’ulom, 1990.
9. <https://www.lex.uz/uz>
10. <https://www.lex.uz/uz>